Kirish. Shaxs va son kategoriyasi turli tillarning grammatik tuzilishida markaziy o'rinni tutadigan lingvistik hodisadir. Ushbu kategoriya fe'l va ega (subyekt) o'rtasida grammatik moslashuvni ta'minlash orqali gapning sintaktik yaxlitligini saqlaydi. Shuningdek, shaxs va son kategoriyasi tilning kommunikativ funksiyasini to'laqonli bajarish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u gapda ishtirok etayotgan shaxslarning kimligini va son jihatidan qancha ekanligini aniq ifodalashga yordam beradi.

Tilshunoslikda shaxs kategoriyasi gapning kimga nisbat berilayotganini, ya'ni so'zlovchi, tinglovchi yoki uchinchi shaxsga tegishli ekanligini aniqlashga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, son kategoriyasi gapda ishtirok etayotgan shaxs yoki predmetlarning birlik yoki ko'plik holatini ifodalaydi. Shu tariqa, shaxs va son kategoriyalari til tizimining morfologik va sintaktik darajasida tahlil qilinadi.

O'zbek tili agglyutinativ tillar qatoriga kiradi va unda shaxs-son kategoriyasi asosan fe'l qo'shimchalari orqali ifodalanadi. Bu qo'shimchalar ega bilan fe'l o'rtasidagi grammatik aloqani ta'minlaydi va gapda ishtirok etayotgan subyektning shaxs va son jihatidan grammatik xususiyatlarini aniq ifodalaydi. Misol uchun, *men yozaman* va *biz yozamiz* gaplarida fe'lga qo'shilgan *-man* va *-miz* qo'shimchalari fe'lning birinchi shaxs birlik va ko'plik shaklida ekanligini ko'rsatadi. Bu esa o'zbek tilida morfologik jihatdan boylikni ta'minlaydi va gap tuzilishidagi grammatik bog'lanishni mustahkamlaydi [5; 153-154 — b].

Ingliz tili esa flektiv tillar qatoriga kirib, unda shaxs va son asosan shaxs olmoshlari va fe'lning ayrim fleksiyalari (o'zgaruvchan shakllari) orqali ifodalanadi. Ingliz tilida shaxs va son kategoriyasi morfologik jihatdan cheklangan bo'lib, faqat uchinchi shaxs birlik holida -s qo'shimchasi yordamida ifodalanadi. Masalan, *I write* va *He writes* gaplarida *write* fe'l birinchi shaxsda hech qanday o'zgarishsiz qo'llanilsa, uchinchi shaxs birlikda -s qo'shimchasi bilan o'zgaradi. Shuning uchun ingliz tilida shaxs va son kategoriyasining grammatik o'zgarishi asosan subyekt (ega) va fe'l o'rtasidagi sintaktik moslashuv orqali amalga oshiriladi [11; 2245-2249 — b]. Shaxs va son kategoriyalari har bir tilda turli funksional va grammatik tamoyillarga asoslanadi. O'zbek tilida bu kategoriya fe'l qo'shimchalari orqali keng ifodalansa, ingliz tilida

shaxs olmoshlari va fe'lning uchinchi shaxs birlik shaklidagi o'zgarishi orqali ifodalanadi. Bu farqlar har ikkala tilning morfologik va sintaktik tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi shaxs va son kategoriyalarining morfologik va sintaktik jihatlari tahlil qilinib, ularning o'zaro qiyosiy taqqoslanishi amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ushbu kategoriyalarning kommunikativ ahamiyati va grammatik tizimdagagi roli keng qamrovida o'rganiladi. Bu esa til o'rganuvchilar va tilshunos olimlar uchun ikki tilning grammatik tuzilishini qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shaxs va son kategoriyasini o'rganishda mavjud adabiyotlarning lingvistik asoslari va tadqiqotlarida qo'llanilgan metodologiyalarni tahlil qilish muhimdir. Bu qismda mazkur mavzu bo'yicha ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning qamrovi, asosiy yondashuvlari va ularning dolzarbligi o'rganiladi.

O'zbek tilida shaxs va son kategoriyasini tadqiq qilishda J.Buranov, U. Hashimov, H.Ismatullayev R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusova va M.Abuzaeva kabi olimlarning ishlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu olimlar o'zbek tilining morfologik tuzilishini, fe'lning shaxs va son shakllarini chuqur o'rgangan. Ayniqsa, o'zbek tilidagi fe'l qo'shimchalari orqali shaxs va sonni ifodalash usullari morfologik izchillik nuqtai nazaridan alohida tahlil qilingan. O'zbek tilida shaxs-son kategoriyasining sintaktik bog'lanishlari va gapdagi funksiyasi bo'yicha O'zbek tilining akademik grammatikasi ham muhim o'rinni tutadi.

Ingliz tilida esa shaxs va son kategoriyasi Noam Xomskiy va Leonard Bloomfield kabi nazariyotchilarning ishlari asosida o'rganilgan. Xomskiyning generativ grammatika nazariyasi, ayniqsa, shaxs va sonning sintaktik strukturadagi o'rni va ularning gapdagi kommunikativ vazifasini o'rganishda muhim hisoblanadi. Ingliz tili bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar esa uchinchi shaxs birlikda fe'lga -s qo'shimchasining qo'shilishi va uning kommunikativ ahamiyatiga qaratilgan. Shuningdek, ingliz tilida shaxs olmoshlari va ularning gapdagi funksiyasini tahlil qilgan R. Quirk va S. Greenbaum kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida e'tiborga loyiqidir. Adabiyotlar tahlili bo'limida shuningdek, o'zbek va ingliz tillarida shaxs va son kategoriyasining qiyosiy tadqiqotlari ham keltiriladi. Bunda ikki tilning morfologik va sintaktik tuzilishidagi o'xshashlik va farqlar, shuningdek, bu kategoriyalarning kommunikativ funksiyalari qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil qilinadi. O'zbek va ingliz tillari bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar esa tilshunoslikda har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va umumiy grammatik qonuniylarlari belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Metodologiya qismida esa tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy usullar va yondashuvlar batafsil yoritiladi. Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalilanildi:

1. **Qiyosiy-tipologik metod:** O'zbek va ingliz tillaridagi shaxs va son kategoriyalari strukturaviy va funksional jihatdan solishtiriladi. Bu metod har ikkala tildagi grammatik o'xshashlik va farqlarni aniqlashga yordam beradi.
2. **Deskriptiv (tasviriy) metod:** O'zbek va ingliz tillarida shaxs va son kategoriyasining grammatik va sintaktik funksiyalari tasviriy ravishda tahlil qilinadi. Fe'llarning shaxs va son qo'shimchalari bilan qanday o'zgarishi va gapdagi funksional roli yoritiladi.
3. **Korpus lingvistika:** O'zbek va ingliz tillarida real nutq namunalari asosida shaxs va son kategoriyalarining qo'llanilishi tahlil qilinadi. Matn korpuslaridan olingan ma'lumotlar tadqiqotning empirik asoslarini mustahkamlaydi.

4. **Nazariy-lingvistik yondashuv:** Tadqiqotda shaxs va son kategoriyalari nafaqat grammatik, balki semantik va pragmatik jihatdan ham tahlil qilinadi. Bu yondashuv grammatik shakllarning ma'noga va kommunikativ vaziyatga bog'liq holda qanday o'zgarishini aniqlash imkonini beradi.

Natija va muhokama. Bu kategoriya haqida so'z yuritar ekanmiz, har ikki tilda bir qancha farqli tomonlarining mavjudligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu farqlar esa quyidagilardan tarkib topgan:

	O'zbek tili	Ingliz tili
A	Shaxs-sonning turlari va shakllari ko'p	Birgina – s qo'shimchasidan iborat Mustasno tarzda to be/ shall/ will va boshqa modal va to'liqsiz fe'llarda qisman shaxs-songa nisbatan o'zgarishi mavjud
B	Shaxs-son qo'shimchalari fe'lidan boshqa so'z turkumlariga qo'shilib kesimlik vazifasini yasaydi.	-
C	Mayl, zamon kategoriyalari bilan chambarchas bog'liq	Faqat bitta zamon – present simple (hozirgi oddiy) zamon bilan bog'liq
D	Shaxs-son qo'shimchalari har doim bo'lgani uchun kishilik olmoshlari ishlatalmasa ham bo'ladi	Har bir gapda kishilik olmoshlari qo'llanilishi shart.
E	Nutqda shaxs-son shakllarining ko'chgan ma'nolari ham uchraydi	- (was-were istisno)

A) Shaxs-sonning turlari va shakllari

O'zbek tili fe'l so'z turkumi bo'yicha ingliz tili bilan taqqoslaganda qo'shimchalarga boy til desak ham bo'ladi. Ular orasida shaxs-son qo'shimchalari alohida o'ringa egadir. Ba'zi manbalarda shaxs-son qo'shimchalari 3 ga yana ba'zilarida 4ga bo'lib o'rganilgan. Bu ularning mayl va zamon kategoriyalari bilan o'zaro bog'liqligidandir [9; 108-116 — b]. Misol uchun:

1) O'tgan zamonning -gan, hozirgi va kelasi zamonning -yap, — a, — moqchi qo'shimchalarini olgan fe'llarga shaxs-sonning quyidagi affikslari birga keladi:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	- man	- miz
II	- san	- siz
III	- o	- (lar)

2) O'tgan zamonning - di va - gan qo'shimchasi bilan birga keladigan "edi" to'liqsiz fe'l, shuning bilan birga shart maylining -sa qo'shimchasi bilan birga kelgan fe'llarga quyidagi shaxs-son qo'shimchalari ishlataladi.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	- m	- k
II	- ng	- ngiz
III	- o	- (lar)

3) – gan va -(a)yotgan qo'shimchalarini olgan fe'l "yo'q" so'zi bilan birga kelganda shaxs-sonning shu kabi qo'shimchalari birga qo'llaniladi.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	- im yo'q	- imiz yo'q
II	- ing yo'q	- ingiz yo'q
III	- i yo'q	- (lar)

4) Sof buyruq maylidagi fe'llarga quyidagi shaxs-son qo'shimchalari qo'shilib, buyruq-istak mayli hosil qilinadi

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	- ay	- aylik
II	- 0/ — gin	- ing(giz)
III	- sin (lar)	- ishsin

Qadimgi ingliz tilida shaxs-son kategoriyasi ham uch guruhdan tashkil topgan, ammo yillar davomida ular kamayib bugungi kunda ikki xil turdag'i shaxs-son shakllariga ega bo'lgan. Ular belgili – s qo'shimchasini olgan shaxs-son va belgisiz – s qo'shimchasini olmagan shaxs-son shakllaridir [1; 93-120 -b].

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	-	-
II	-	-
III	-(e)s/ — (ie)s	-

Ammo bu jarayon ham ancha chegaralangan bo'lib, fe'lga –s shaxs-son qo'shimchasi qo'shilishi faqatgina present simple (hozirgi oddiy) zamondagina uchraydi. Shu o'rinda –s qo'shimchasing yana bir necha xil allomorflari borligini ta'kidlab o'tamiz. Qolgan barcha zamonlarda shaxs va son istisno ravishda quyidagi ko'makchi fe'llar bilan yuzaga chiqadi: *To be, will/shall, have/ has*

I speak the Uzbek language We speak the Uzbek lagauge
You speak the Italian language You speak the Italian language
He/ she speaks the Malay language They speak the Malay language

To be ko'makchi fe'l'i hozirgi zamonda *am/ is/ are* kabi shaxs va sonda tuslansa, o'tgan zamonda *was/ were* va kelasi zamonda faqat *will/ shall be* ko'rinishida tuslanadi. Bu vaziyatda to be va uning shakllari o'zbek tilida hozirgi zamon uchun *-man, — san, -miz, -siz, -lar*¹ qo'shimchalarini olgan bog'lama turlari kabi tarjima qilinsa, o'tgan zamonda *edi, edim, edik* kabi, kelasi zamonda *esa - a* qo'shimchasiga qo'shilgan *-man, -san, -siz, -lar* affikslarining qo'shilmasidan hosil qilinadi. Ammo *to be* fe'l'i shaxs-son qo'shimchalariga emas, o'zbek tilidagi bog'lamalarga teng keladi. Shu jihatdan u –s qo'shimchasi, *will/ shall* va *have/has* fe'llaridan farqlanadi [4; 1-9 — b].

I am a teacher. – Men o'qituvchiman He is 17. –U 17 yoshda_

¹ Shuni eslatib o'tish joizki yuqorida qo'shimchalar fe'lga qo'shilsa shaxs-son, fe'l dan boshqa ismlarga qo'shilsa bog'lama deb nomlanadi.

I was a teacher. – Men o'qituvchi edi *He was 17. – U 17 yoshda edi*

I will be a teacher. – Men o'qituvchi bo'laman *He will be 17. – U 17 yosh bo'ladi.*

Have fe'li ko'makchi fe'l bo'lishdan tashqari *bor bo'lmoq* ma'nosida mustaqil fe'l bo'lib ham keladi. Bundan tashqari, boshqa so'z turkumlaridagi so'zlar bilan birikib birikma holatida *bor bo'lmoqdan* tashqari turli ish-harakat ma'nolarini bildirib keladi. Bu vaziyatda *have* fe'li III shaxs birlikda *has* ko'rinishiga o'zgaradi va bu ham faqatgina present simple (hozirgi zamон) da ro'y beradi.

I have a pen. – Menda ruchka bor **We have** a pen. – Bizda ruchka bor

You have a pen. – Senda ruchka bor **You have** a pen. – Sizlarda ruchka bor

He/she has a pen. – Unda ruchka bor **They have** a pen. – Ularda ruchka bor

Will/ shall ham kelasi zamonda *shall* ko'makchi fe'lining *I* va *we* olmoshlariga, *will* esa qolgan barcha olmosh turlariga qo'shilib kelishiga ko'ra shaxs va sonda tuslanadi. Ammo bu qoida zamonaviy ingliz tili grammatikasidan va asosan nutqdan asta sekinlik bilan chiqib ketmoqda.

I shall open the door.

We shall open the door

You will open the door.

You will open the door

He/she will open the door.

They will open the door.

B) Shaxs-son qo'shimchalari fe'ldan boshqa so'z turkumlariga qo'shilish hodisasi

O'zbek tilida bu hodisa aniq mavjud bo'lib, fe'ldan tashqari ot sifat olmosh kabi boshqa so'z turkumlariga qo'shilib, ularda kesimlik vazifasini hosil qiladi [13; 189 b]. Misol uchun: *Bizlar yaxshimiz. Men yaxshi o'qituvchiman. Bularning barchasiga sababchi ulardir.*

Ingliz tilida bu holatni deyarli kuzatmaymiz. O'zbek tilidagi shaxs-son qo'shimchalariga nisbatan teng bo'lgan –s qo'shimchasi fe'ldan boshqa hech qaysi so'z turkumlariga qo'shilib kelmaydi. Ammo istisno bo'lgan *to be va uning shakllari* haqida bu fikrni ayta olmaymiz [8; 19 b]. Sababi *to be* fe'li tarjima jihatida *bo'lmoq, bo'lish* deb tarjima qilinsa ham vazifa jihatidan o'zbek tilidagi bog'lamalarga tengdir. Shu jihatdan ingliz tilidagi holat (condition sentences) gaplarini yasashda u ega bilan ot, sifat, olmosh va son so'z turkumidagi so'zlarni bog'laydi va ularni ot –kesimga aylantiradi. Faqat ingliz tilida qaysi so'z turkumi bilan birga kelishiga qarab ular bir necha xil kesim turlariga bo'linadi. Misol uchun: predicate noun — ot-kesim, predicate adjective — sifat-kesim, predicate pronoun – olmosh-kesim, predicate adverb – ravish-kesim.

I am good. – Men yaxshiman *We are new. – Biz yangimiz*

You are 20. – Sen 20dasan *You are pupils. – Sizlar o'quvchilarsizlar*

It is for you. – Bu sen uchun *They are happy. – Ular baxtli*

Demak yuqoridagi "*I am good – men yaxshiman*" gapi sifat-kesim (predicate adjective) bo'lsa, "*It is for you – bu sen*" uchun gapi olmosh-kesim (predicate pronoun) hisoblanadi. O'zbek tilida bu turlarning barchasi ot-kesim nomi ostida birlashadi. Albatta bular turli zamonlarda keladi: *It was sunny yesterday. – Kecha guyoshli edi* (predicate adjective — sifat-kesim).

C) Mayl, zamon kategoriyalari bilan chambarchas bog'liqligi

O'zbek tilida shaxs-son shakllari o'zi qo'shilayotgan zamon va mayl turiga bog'liq hisoblanadi. Ya'ni ba'zi shaxs-son qo'shimchalari o'tgan zamon bilan birga kelsa, ba'zilari mayl kategoriyasining faqat buyruq-istak mayli bilan qo'shilib keladi [10; 217-220 — b]. Bu hodisa yuqoridagi **Shaxs-sonning turlari va shakllari** qismidagi jadvallarda ham aniq yoritilib berilgan.

Ingliz tilida shaxs-son qo'shimchalariga qisman teng kelgan –s qo'shimchasi esa present simple tense (hozirgi oddiy zamon) dan tashqari boshqa hech qanday mayl va zamonlar bilan bog'lanamydi. Lekin "have" ko'makchi fe'l vazifasida ham mustaqil fe'l vazifasida ham present simple tense (hozirgi oddiy zamon) dan tashqari present perfect (hozirgi tugallangan) va present perfect continuous (hozirgi tugallangan davomli) zamonlarda ham shaxs va sonda "has" sifatida tuslanadi. Ammo bu tuslanish har doimgidek faqat III shaxs birlikka nisbatan uchraydi:

*He **drinks** coffee. – U kofe ichadi*

*He **has** a cup of coffee. – Unda bir funjon kofe bor*

*He **has been** to London. – U Londondan bo'lgan*

*He **has been travelling** for 6 months. – U 6 oydan beri sayohat qilib kelayapdi.*

D) Kishilik olmoshlarining birga qo'llanilish jihatি

Ona tilimizda bu oddiy hol hisoblanib, har bir shaxsning alohida shaxs-son qo'shimchalari bo'lgani uchun ko'pgina hollarda gapda kishilik olmoshlarini birga qo'llamasa ham, ish-harakatni kim tomonidan bajarilayotganini bilish qiyin emas. Misol uchun: *Men o'qidim – o'qidim. Sen chiroylisan – chiroylisan.*

Mustasno tarzida III shaxs birlik va ko'plik shakllarini keltirishimiz mumkin. Ularning qo'shimchalari bir xil bo'lgani uchun ba'zida birgina gapning o'zi bilan ish-harakatni bir kishi yoki ko'pchilik tomonidan bajarilganligini anglash murakkab bo'lib qoladi: *U yozdi – yozdi. Ular yozdi – yozdi.*

Ingliz tilida shaxs-son qo'shimchalari deyarli yo'q bo'lgani uchun kishilik olmoshlarining birga qo'llanilishi shartdir. Ularsiz ish-harakatning aynan kim tomonidan bajarilganini bilishning I koni qolmaydi [7; 547 b]. Xattoki III shaxs birlikda keluvchi – s qo'shimchasini olgan fe'l ham bu shaxsning jonli yoki jonsiz, erkak yoki ayol ekanligini aniqlashtirib berolmaydi: *She comes – u keladi/ He comes – u keladi/ It comes – bu keladi (jonsiz narsalar yoki hayvonlarga nisbatan). Comes/ Comes/ Comes.* Shu sababdan, o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonlarida ham agar o'zbek tilida kishilik olmoshlari qatnashmagan bo'lsa, shaxs-son qo'shimchalari orqali aniqlashtirilib kishilik olmoshlari bilan birga yoziladi: *Akam bilan birga universitetga bordim. – I went to the university with my brother.* Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonlarida esa buning ahamiyati yo'q: *We were nominated with awards. – Mukofot bilan taqdirlандик/ Biz mukofot bilan taqdirlандик.* Ko'rinish turganidek o'zbek tilida hatto kishilik olmoshi qatnashmagan gap kishilik olmoshi qatnashgan gapdan ancha lo'ndaroq holatda bo'ladi.

E) Nutqda shaxs-son shakllarining ko'chgan ma'nolarda ham uchrashi

O'zbek tilida ingliz tiliga qaraganda bu hodisa ham ancha keng tarqalgan bo'lib, oddiy nutqimizda deyarli har kuni eshitishimiz mumkin. Bu vaziyat bilan biz oddiygina shaxs-son qo'shimchalarini o'zgartirish orqali kamtarlik, manmanlik, hurmat, shaxsning nutqi o'ziga qaratilganlik kabi ma'nolarini berishimiz mumkin. Ammo xohlagan shaxs-son qo'shimchalarini boshqa shaxslarga qo'shib qo'ya olmaymiz, balki bu qoida ham ma'lum bir shaxs-son qo'shimchalari va shaxs turlari doirasida chegaralangandir. Misol uchun, I shaxs ko'pligi (biz) uning birligi o'rnida qo'llanilsa (men): *Biz tayyormiz; fe'lning I shaxs birligi (men) o'rnida II yoki III shaxs birlik/ko'plik (sen, sizlar, u, ular) qo'llanilsa: Olima qiz, mana ilmiy ishni ham yozib bo'ldilar; fe'lning II shaxs ko'pligi (sizlar) o'rnida I shaxs ko'plik (biz) ishlatsa va kishi/ odam*

kabi so'zlar bilan I shaxs birlik (men) o'rnilida II shaxs (sen/siz, sizlar) ishlatsa sodir bo'ladi [12;366-371 — b].

Ingliz tilida shaxs-son qo'shimchasi bo'lmish – s qo'shimchasi hech qachon *he/she/it* (u)dan boshqa shaxslarga qo'shilmaydi va boshqa ko'chma ma'nolarni ham bermaydi. Ammo *to be* fe'lining Conditional IIga kiruvchi noreal qo'shma gapida kelishida yuqoridagi hodisani qisman ko'rishimiz mumkin. Bunda aslida birlikdagi shaxslarga nisbatan **was** kelishning o'rniغا **were** to be formasi ishlataladi va shu bilan noreallik ifodalanadi.

If I were you, I would finish my work earlier. – O'rningda bo'lganimda ishimni ertaroq tugatgan bo'lardim (demak o'rnilida bo'la olmaydi).

If he were here, he would make everyone be happy now. – Agar u shu yerda bo'lganida edi, hozir hammani xursand qilib o'tirgan bo'lar edi (demak hozir u buyerda emas).

Agar yuqoridagi gaplar o'zi bilan birga kelishi kerak bo'lgan to be fe'llari bilan birga qo'llanilganda, gap ma'nosi ham o'zgargan bo'lardi. Ammo eslatib o'tamiz ingliz tilida ular aynan shu ergashgan qo'shma gapda kelishi uchun to be fe'li o'zgargan holatda kelishi kerak [2; 788-793 — b].

Shu kabi farqli tomonlaridan tashqari, ingliz va o'zbek tillaridagi shaxs-son qo'shimchalarining birlashtiruvchi jihatlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

		O'zbek tili	Ingliz tili
A	Nafaqat shaxsni balki sonni ham ifodalaydi	+	+
B	Harakat bajaruvchisi bilan ish-harakatni bog'laydi, ya'ni ega bilan kesimni semantik va morfologik jihatdan birlashtiradi	+	+
C	I/ II/ III shaxs turlariga bo'linib, kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi	+	+
D	I/ II/ III shaxs turlari o'z navbatida birlik va ko'plik kabi guruhlarga bo'linadi	+	+

A) Nafaqat shaxsni balki sonni ham ifodalaydi

Har ikkala tilda ham bu hodisa mavjud bo'lib, birlik va ko'plik maxsus usullar yordamida hosil qilinadi. Bu jarayon orqali ma'lum bir ish-harakatni bir kishi yoki bir kishidan ziyod odamlar tomonidan amalga oshirilgan yoki oshirilmaganini anglashimiz mumkin bo'ladi. Misol uchun ko'plik (plurality), o'zbek tilida kishilik olmoshlarining ko'pligi va ko'plik ma'nosini beruvchi shaxs-son qo'shimchalari orqali amalga oshsa, ingliz tilida ham ko'plikdagi kishilik olmoshlari va belgisiz ko'rinishdagi shaxs-son kategoriysi bilan ifodalanadi. Birlik esa (ya'ni ish-harakatni faqat bir kishi tomonidan bajarilgani) o'zbek tilida birlik ma'nosida keluvchi kishilik olmoshlari va shaxs-son qo'shimchalari bilan yuzaga chiqsa, ingliz tilida ham birlik ma'nosidagi kishilik olmoshlari va birgina hozirgi zamон uchun belgili shakl -s qo'shimchasi bilan hosil qilinadi [3; 368-371 — b].

I shaxs birlik – men / I

II shaxs birlik – sen / you

III shaxs birlik – u / he,she,it

I shaxs ko'plik – biz / we

II shaxs ko'plik – sizlar / you

III shaxs ko'plik – ular / they

B) Harakat bajaruvchisi bilan ish-harakatni bog'laydi

Ma'lumki, bajaruvchi shaxs bilan bajariladigan ish o'rtaсидаги муносабат тилшуносликда предикативлик дейилди [13; 189 б]. Бу esa албатта har иккى тilda шахс-сон категорияси орқали амалга оширилди. Faqat yana bir bor ta'kidlab o'tish kerakki, o'zbek tilida bu aniqroq bayon qilinadi. Misol uchun, o'zbek tilida har bir shaxsning alohida shaxs-son qo'shimchalari bor bo'lib, biz shunchaki ish-harakat ifoda etayotgan so'zning o'zidan uning bajaruvchisi kim ekanligini deyarli aniq ayta olamiz. Ammo ingliz tilida yagona "go" so'zi orqali harakat bajaruvchisi kim ekanligini aniqlab bo'lmaydi. Sababi, "go" belgisiz shaklida I, we, you, they каби olmoshlarga ham birdek to'g'ri keladi. Albatta III shaxs birlik bundan mustasno.

Men mакtabga boraman. – I go to school

Sen mакtabga borasan. – You go to school

Biz mакtabga boramiz. – We go to school

U mакtabga boradi. – He goes to school

C. I/ II/ III shaxs turlariga bo'linib, kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi

O'zbek va ingliz tillarida aynan kishilik olmoshlari ishtiroki bilan shaxs-son ifodalanadi va ular quyidagilardir:

Shaxs-son	O'zbek (birlik)	Ingliz (singular)	O'zbek (ko'plik)	Ingliz (plural)
I	Men	I	Biz	We
II	Sen/Siz	You	Sizlar	You
III	U	He/She/ It	Ular	They

Yuqorida ko'rinish turganidek har ikki tilda shaxs-son yana ikki turga birlik va ko'plik guruhlariga bo'linib ketmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib, ingliz va o'zbek tillaridagi shaxs-son kategoriyasini o'rganib ular o'rtaсидаги о'xshash томонлардан farqli jihatlar ko'pligini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tili boy til ekanligining yana bir guvohi sifatida shaxs-son qo'shimchalari va ular yetkazadigan ma'nolarning ko'pligida yana bir bor ma'lum bo'ladi. Afsuski bu kategoriya ingliz tilida yildan yilga o'z kuchini yo'qotib bormoqda. Misol sifatida hozirgi zamон (present simple) he/she/ It olmoshlariga nisbatan ishlatiladigan yagona – s qo'shimchasi ham hozirgi ingliz tili nutqida o'z ahamiyatini yo'qotib, ishlatilmasdan ketsa ham oddiy holatga aylanib bormoqda. Istisno bo'lган to be, have/has va will/ shall ко'makchi fe'llari ham shu holatga yaqinlashib bormoqda. Masalan, shall ning о'rniga will fe'lining ishlatilishi va buni grammatik jihatdan to'g'ri deb tan olinishi, og'zaki nutqda to be/ing inkor holatidagi barcha shakllari о'rnida ain't (am not, is not, are not) qo'llanilishini aytib o'tsak bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Friederike Moltmann. Plural Reference and Reference to a Plurality. Unity and Plurality. Philosophy, Logic, and Semantics. Oxford, England: Oxford University Press, 2016. – 93-120 p.
2. HouKa Chan, Hao Tan, Ruiqi Xiao. Research on the Effects of Plurality on Minds. Proceedings of the 2022 6th International Seminar on Education, Management and Social Sciences, 2022. – 788-793 p.
3. Jabborova Aziza Jobirovna. The Category of Person in English Grammar. Modern Science and Research, 2023. – 368-371 p.

4. Jillian Mcilwain, Peter Peterson. Signaling Plurality in Learner English. Proceedings of the 2004 Conference of the Australian Linguistic Society, 2005. – 1-9 p.
5. J.Buranov, U. Hashimov, H.Ismatullayev, Ingliz tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – T., "O'qituvchi nashriyoti", 1974. – 351 b.
6. J.Bo'ronov. Ingliz va O'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. O'quv qo'llanma. – T., "O'qituvchi nashriyoti", 1973. – 279 b.
7. Karimova Kamola Lutfullayevna. Tense, Person, Number in English Grammar. O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar va Ilmiy tadqiqotlar Jurnali, 2023. – 547 p.
8. Mohammed Jasim Betti. Grammatical Person and Number. Research Gate, 2022. – 19 p.
9. N.Turniyozov, A. Rahimov, O'zbek tili. O'quv – uslubiy qo'llanma. - Samarqand. 2006. – 147 b.
10. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusova, M.Abuzaeva. Hozirgi O'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T., "Fan va texnologiya", 2009. – 416 b.
11. Suzana Ejupi, Lindita Skenderi. Grammatical Categories of Verb in English and Albanian. Knowledge International Journal, 2018. – 2245-2249 p.
12. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xoziyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi O'zbek adabiy tili I qism. – T., "O'qituvchi", 1980. – 443 b.
13. X.S.Muxitdinova., D.Xudoyberganova., I.Umirov., N.Jiyanova., T.Yusupova. Hozirgi O'zbek Adabiy Tili. O'quv qo'llanma. – T., "O'qituvchi", 2004. – 189 b.

Internet saytlari:

1. [Articles: Singular vs. Plural | Edanz Learning Lab](#)
2. <https://www.aje.com/arc/editing-tip-singular-and-plural-forms-scientific-writing/>
3. <https://journals.openedition.org/acs/12386>
4. <https://www.unisa.ac.za/sites/corporate/default/Unisa-Open/OER-@-Unisa/Linguistics/Grammatical-categories>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali**
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro’yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).